



SCIENCE AND EDUCATION
SCIENTIFIC JOURNAL

CERTIFICATE

CONFIRMS THAT

AKBAR TUXTAEVICH GULBOYEV

PUBLISHED THE ARTICLE TITLED

O'QITUVCHILAR KASBIY MAHORATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

IN VOLUME #3 ISSUE #7, JULY 2022

EXECUTIVE SECRETARY:

TUSMATOVA N.



ISSN
ISSN 2181-0842

WWW.OPENSOURCE.UZ

O‘QITUVCHILAR KASBIY MAHORATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Gulboyev Akbar tuxtaevich

Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: Maqolada malaka oshirish vositasida o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari tadqiq etilgan.

Tayanch so‘zlar: o‘qituvchi, faoliyat, tashxis, yaxlitlik, tizim, tabaqalashuv, malaka oshirish.

PEDAGOGICAL FUNDAMENTALS OF TEACHERS 'PROFESSIONAL SKILLS

Gulboyev Akbar tuxtaevich

Associate Professor of Bukhara State University, Ph.D.

Annotation: The article explores the scientific and pedagogical basis for improving the professional skills of teachers through in-service training.

Keywords: teacher, activity, diagnosis, integrity, system, classification, professional development.

Ta’lim islohoti yangicha fikrlovchi, asrimizning shiddatli axborot oqimida to‘g‘ri yo‘l topa oladigan, axborotlardan unumli, yosh avlod ta’lim–tarbiyasi, kasb-hunar o‘rganishida foydalana oladigan, izlanuvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Bu ishning muhimligi shundaki, pedagogik tajriba ta’lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritilmasin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta’lim standartlari yaratilmasin, ularni o‘quv–tarbiya jarayoniga joriy qilish o‘qituvchi shaxsi va pedagogik mahoratiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Modomiki shunday ekan, malaka oshirish jarayonida nimalarga asosiy e’tiborni qaratish yoki uning maqsadi nimalarda o‘z ifodasini topadi? Fikrimizcha bunda:

- har bir pedagogning shaxsiy sifatlari va kasbiy mahoratini oshirish bilan birga o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ham eng so‘nggi yangiliklar bilan tanishtirib borish;

- kasbiy – pedagogik faoliyatning yuqori darajada bo‘lishi uchun yangiliklarni amaliyotga qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- pedagoglarda yangiliklarga tashnalik va doimo mustaqil o‘qish hissini tarbiyalash;

- o‘quv jarayoni va malaka oshirishni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish;

- pedagogik kadrlar malaka oshirishini takomillashtirish mazkur sohada band bo‘lgan xodimlarning o‘zlarini kasbiy mahoratini oshirish;

-ularni kattalar ta’limi xususiyatlarini, qonuniyatlarini tushunish borasidagi tayyorgarliklarini takomillashtirish ham muhim hisoblanadi. Malaka oshirish natijalarini doimiy tahlil qilish asosida jarayonga o‘zgartirishlar kiritish.

Shunday qilib, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi ularning ijodiy imkoniyatlarini, shaxsiy sifatlarini va kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirib, o‘quvchilar ta’lim- tarbiyasining sifatini ko‘tarishga erishishdir.

Ta’lim islohoti talablari asosida pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish ancha murakkab muammo hisoblanadi. Uni uzluksizlik prinsipi asosida qayta qurish mumkin. Unda:

-inson omili asosida uni demokratik va gumanistik asosda qurishni;

-pedagoglarni asosiy (baza) ma’lumoti bilan malaka oshirishi o‘rtasidagi bog‘likni va farqni hisobga olish;

-davlat tomonidan tashkil qilinadigan malaka oshirish kurslari bilan mustaqil o‘z ustida ishlashning o‘zaro uzviyligini ta’minlash;

-pedagoglarning ehtiyojlarini o‘rganish va ularni sub’ektiv imkoniyatlarini ijtimoiy talablar bilan muvofiqlashtirish;

-malaka oshirishning turli bosqichlari (davriyligi)da bilim, mahorati darajasiga qarab tabaqalashtirish va individuallashtirish asosida mazmuni va shakl, metodlarini, muddatini belgilash;

-attestatsiyani moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish bilan o‘zaro uzviy bog‘liq tizimini ishlab chiqish;

-malaka oshirishning davlat va nodavlat, ijtimoiy, mustaqil tashkil qilinadigan shakllarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlash;

-malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi uchun kattalar pedagogikasi xususiyatlarini, pedagoglarning yoshi, faoliyat motivlari, shaxsiy sifatlarini hisobga olish asosida tashkil qilish;

-malaka oshirish va qayta tayyorlashda davlat va nodavlat muassasalari raqobati hamda eksternatni joriy qilish;

-malaka oshirish asosida pedagoglar kasbiy faoliyati va shaxsiy sifatlarida bo‘ladigan o‘zgarishlarni aniqlash me‘yorlarini ishlab chiqish zarur.

Bevosita pedagog xodimlar malakasini oshirishning nazariy metodologik, tashkiliy pedagogik asoslari, bu jarayonni tashxis asosida tashkil etishning umumiy jihatlari hamda yangi ta‘limiy qadriyatlar bilan bog‘liqligi pedagogika fanlari doktorlari, professorlar K.Z.Zaripov, J.G‘.Yo‘ldoshev, Sh.Q.Mardonov, B.R.Adizovlar ishlarida tadqiq qilingan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish tub mohiyati bilan ijtimoiy jarayon bo‘lib, unda malakasini oshiruvchi – dars beruvchi shaxs, uslubshunos, guruhdagi hamkasblari bilan ko‘p tomonlama munosabatlarga kiradi. Bu munosabatlar ta‘sirida ma‘lum bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi bilan birga o‘zining qator shaxsiy sifatlarini, chunonchi, muloqoti, boshqalarga munosabati, ularni tushunish jihatidan o‘zini taqqoslaydi. .

Shundan kelib chiqib, biz o‘qituvchi pedagogik mahoratini uzviy oshirib borishida tahliliy faoliyat belgilovchi bo‘lganligi uchun uni malaka oshirish predmeti sifatida ham qarash o‘rinli bo‘ladi deb hisoblaymiz. O‘qituvchining o‘z tahliliy faoliyatini ta‘lim islohoti talablari asosida ilmiy-nazariy tahlil qilib, pedagogika fani yutuqlari darajasida ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashi o‘ta muhim hisoblanadi. O‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini tahlil asosida ta‘lim-tarbiyani islohot talablariga nomuvofiqligini oldini olishda kursdagi mashg‘ulotlar va kursdan keyingi mutasil ravishda fan-texnika yutuqlari, pedagogik tadqiqotlar natijalarini o‘rganishi va o‘z faoliyatiga qo‘llashi zarur. Shu bilan birga ish joyidagi

metodik ishlar tizimi hamda mustaqil bilim olishni samarali tashkil qilishi ham belgilovdir.

Demak, bundan ko‘rinadiki, o‘qituvchining kursdagi faoliyati kurs mashg‘ulotlari mazmunini belgilash bilan birga kursdan keyingi faoliyati yagona g‘oya-ta‘lim-tarbiya va o‘z shaxsini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi bog‘lanish asosini tashkil etadi.

O‘z navbatida bu uchala komponentning **yaxlitligi** va **o‘zaro** bog‘liqligi malaka oshirish mazmunini tashkil etadi.

Metodik ishlar malaka oshirishning nazariy va ilmiy yo‘nalishi ularni hal qilish sharoitini taqozo qiladi. Shunday qilib, o‘qituvchi amaliy faoliyati unda muammolarni paydo bo‘lish manbai bo‘lsa, pedagogik nazariyalar ularni amaliy hal qilish (qo‘llash) sharoitini yaratadi. Har bir o‘qituvchi o‘zi uchun zarur ta‘lim-tarbiya muammolarini (faoliyati ehtiyojidan kelib chiqib) hal qilishida amaliyot bilan nazariya uyg‘unligi kelib chiqib, ular o‘qituvchi pedagogik faoliyatini faollashtirish manbai hisoblanadi. O‘z navbatida bular ta‘lim-tarbiya, malaka oshirishni hal qilishda metodologik asos rolini bajaradi

O‘qituvchi sifatli dars berish bilan birga mustaqillik g‘oyasini yoshlarga singdirishi, ularni otashin xalqparvar, vatanparvar qilib tarbiyalashi ham zarur. Bu maqsad o‘qituvchi faoliyati orqali voqealikka aylanadi. Shuning uchun PQT va MOPda, ya‘ni tinglovchilar va malaka oshirish tashkilotchilari faoliyatida o‘qituvchini bilimga tashnalik, yangilikka intilish, «men hamma narsani bilaman», kabi o‘ziga ortiqcha baho berish odatini sindirib, doimiy o‘qish, o‘rganish, malaka oshirishning foydaligiga ishonchini mustahkamlash zarur .

Insonning faoliyati har qanday xarakter va shaklda bo‘lmasin, ma‘lum ichki intilish, istak, mayl, ya‘ni motiv asosida, u yoki bu maqsadini amalga oshirish oqibatida ro‘yobga chiqadi Ammo shunga qaramasdan pedagogik mahoratni takomillashtirish pedagogik kadrlar malakasini oshirish tizimining asosiy maqsadi hisoblanadi. **Bunda takomillashtirish o‘z mohiyati bilan avvaldan shakllangan salbiy odatlarni o‘zgartirish, doimiy bilim, ko‘nikma va malaka egallashga**

hozirlikka tayyorlash - PQT va MOning asosiy vazifasi va maqsadidir, desak to'g'ri bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik kadrlar kasbiy mahoratini oshirish tizimining **bosh maqsadi** bo'lib, faqat o'qituvchi faoliyati va shaxsini takomillashtirish emas, balki unda **jamiyatning ta'lim-tarbiyaga oshib borayotgan talablarini amalga oshirish bilan shaxsiy tayyorgarligi o'rtasida o'zaro mutanosiblikni shakllantirish muhim hisoblanadi.**

Malaka oshirishda ta'lim mazmuni, shakl va metodlari, uni tashkil qilish mezonini tinglovchilarining bilim, ko'nikma va malakalari va shaxsiy sifatlari bo'lib, ularning pedagogik mahoratida o'z ifodasini topadi. Aynan mana shu ikki bir-biriga bog'liq kasbiy belgilar o'qituvchi ishida belgilovchi hisoblanadi.

Uzluksiz ta'limning har bir bo'g'inida tabaqalashtirish hoxish bilan emas, balki ehtiyoj asosida tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq. Eng avvalo uni metodologik, umumpedagogik, psixologik va didaktik jihatlarini va bularni o'quv jarayoniga tadbir qiluvchi o'qituvchilarni tayyorlash bilan bog'liq. Uning ilmiy asoslarini ishlab chiqib, o'qituvchilar unga tayyorlanmasa, yana boshimiz o'rtamiyona yondoshishdan chiqmaydi.

Malaka oshirish tizimida faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar ta'kidlaydilarki, har doim guruhlarda tinglovchilarning tayyorgarligini uch xil: kuchli, o'rtacha va pastni mahoratlarini uchratish mumkin. O'qituvchi tenglashtirish prinsipi asosida o'quv materialini mazmunini kuchli tinglovchiga tayanib tanlasa, kuchsiz tinglovchining mazkur va boshqa fanlarga bo'lgan qiziqishi pasayadi. Agar o'qituvchi past tayyorgarligi bo'lgan tinglovchiga tayansa, bunda yuqori va o'rtacha tayyorgarligi bo'lgan o'qituvchilar malaka oshirishdagi o'qishga qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun o'rtacha yondoshish prinsipidan voz kechib, taxsil oluvchilarning real individual xususiyatlarini hisobga olish shu kunning taqozosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Амонов М. Н. ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЕ ОРГАНИЗАТОРСКИХ КАЧЕСТВ У УЧАЩИХСЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ

КОЛЛЕДЖЕЙ //Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. – 2020. – С. 9-14.

2. Gulboyev A. T. X. TA'LIMDA PEDAGOGIK QADRIYATLAR //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 349-355.

3. Гулбоев А. Т. АСПЕКТЫ И ОСОБЕННОСТИ ЦЕЛОСТНОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 10 (135). – С. 29-32.

4. Гулбоев А. Т. Педагогик ташхис воситасида ўқитувчилар малакасини узлуксиз ошириш.. Педагогика. фан. ном. – 2010.

5. Гулбоев А. Т. Формирование профессиональных компетенций экономистов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83). – С. 9-11.

6. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 120-122.

7. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.

8. Жураев Б. Т. Некоторые вопросы наставничества в педагогическом наследии Хусаина Воиза Кошифи //Социально-культурная деятельность: векторы исследовательских и практических перспектив. – 2016. – С. 103-105.

9. ХОДЖАЕВ Б. К., ЖУРАЕВ Б. Т. ПОВЫШЕНИЕ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СЛУШАТЕЛЕЙ ИНСТИТУТА ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РАБОТНИКОВ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ //ЭКОНОМИКА. – С. 1217-1222.

10. Ходжаев Б. К., Ходжаев Б. Б. Подготовка студентов педагогического факультета к формированию эстетической культуры у школьников //Формирование патриотизма у молодежи средствами социально-культурной деятельности: векторы исследовательских и практических перспектив. – 2016. – С. 184-188.

11. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK
DEONTALOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI
//Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 42-47.